

Katta hajmli va og'ir vaznli yuklarni tashishni tashkil qilish

Katta hajmli va og'ir vaznli transport vositalarini aniqlash.

Katta hajmli va og'ir vaznli yuklar [Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 dekabrda 342 sonli Qarorining 2-ilovas](#)"Katta o'lchamli va og'ir vaznli yuklarni avtomobil transportida tashishda harakat xavfsizligini ta'minlash qoidalari"ga asosan aniqlanadi.

Transport vositasi (yuk bilan yoki yuksiz) quyidagi o'lchamlarning birortasidan oshganda, katta o'lchamli xisoblanadi:

- balandligi –4,0 metr;
- eni – 2,55 metr (refrijeratorlar va izometrik kuzovlar uchun – 2,6 metr);
- uzunligi:
- bir tirkamali yoki yarim tirkamali avtopoezdlar – 20 metr;
- ikki tirkamalik (yoki undan ortiq)– 24 metr;
- ortilgan yukning transport vositasiort tomonidan chiqib turishi – 2 metr.

OG'IR YUKLI VA KATTA HAJMLI TRANSPORT VOSITALARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARI BO'YLAB YURIB O'TGANLIGI UCHUN TO'LOV

1. Transport vositasining umumiy haqiqiy massasi ruxsat berilganiga nisbatan oshganligiuchun to'lanadigan to'lov 1-jadvalda keltirilgan tariflarga muvofiq belgilanadi.

1-jadval

Umumiy haqiqiy vaznning yo'l
qo'yiladigan vaznga nisbatan ortiqchalik
miqdori, t

Yuriladigan 1 km masofa uchun tarif,
AQSh dollari

0 dan 5 gacha	0,04
5 dan 10 gacha	0,06
10 dan 15 gacha	0,12
15 dan 20 gacha	0,20
20 dan 25 gacha	0,30
25 dan 30 gacha	0,46
30 dan 35 gacha	0,66
35 dan 40 gacha	0,92
40 dan 45 gacha	1,26
45 dan 50 gacha	1,70
50 va undan yuqori	2,00

Og'ir yukli transport vositalarining avtomobil yo'llaridan o'tishida o'qqa tushadigan haqiqiy og'irlikning (Of) ruxsat berilganga (Od) nisbatan oshganligi uchun to'lovhar bir ortiqcha yuklangan o'q uchun 2-jadvalda keltirilgan tariflarga muvofiq undiriladi.

2-jadval

**G'ildirak o'qi haqiqiy yuklamasining
yo'l qo'yiladigan yuklamaga nisbati
(Of/Od)**

**Har bir o'qning yo'l qo'yiladigan
yuklamadan ortiqcha yuklama bilan
yurilgan masofa uchun tarif, AQSh dollari**

1,01 dan 1,05 gacha	0,11
1,05 dan 1,10 gacha	0,12
1,10 dan 1,15 gacha	0,28
1,15 dan 1,20 gacha	0,36
1,20 dan 1,25 gacha	0,42
1,25 dan 1,30 gacha	0,50
1,30 dan 1,35 gacha	0,60
1,35 dan 1,40 gacha	0,70
1,40 dan 1,45 gacha	0,82
1,45 dan 1,50 gacha	0,96
1,50 dan 1,55 gacha	1,10
1,55 dan 1,60 gacha	1,28
1,60 dan 1,65 gacha	1,46
1,65 dan 1,70 gacha	1,70
1,70 dan 1,75 gacha	1,90
1,75 dan 1,80 gacha	2,16
1,80 dan 1,85 gacha	2,44
1,85 dan 1,90 gacha	2,76
1,90 dan 1,95 gacha	3,08
1,95 dan 2,00 gacha	3,46
2,00 va undan yuqori	4,00

2. Transport vositalari hajmlarining ortiqchaligi uchun to'lov yurib o'tilgan 1 km yo'l uchun 0,15 AQSh dollari miqdorida undiriladi.

3. Og'ir yukli va yirik gabaritli transport vositalari o'tishi uchun arizalarni ko'rib chiqish, yo'nalishni kelishish va ruxsatnoma berish uchun to'lanadigan to'lovning miqdori yo'l organlari tomonidan quyidagi tarzda belgilanadi:

100 km ga qadar — 25 AQSh dollari

har bir keyingi kilometr uchun — 0,11 AQShdollari.